

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 657.47:664.7:658.5(575.1)

XAMIDOVA SULUV YANGIBOYEVNA

**ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOB
VA TAHLILI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy maslahatchi: B.A.Xasanov, i.f.d., professor.

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH		3
I BOB	ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBI VA TAHLILINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	19
1.1-§.	Ishlab chiqarish xarajatlari boshqaruv hisobining nazariy asoslari.....	19
1.2-§.	Kompleks boshqaruv tahlilining konsepsiyasi va tashkiliy uslubiy jihatlari	46
1.3-§.	Xarajatlarning boshqaruv hisobi sohasidagi xalqaro tajriba va uni tarmoq korxonalari faoliyatiga qo‘llash imkoniyatlari.....	62
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	69
II BOB	DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
2.1-§.	Donni qayta ishlash korxonalarining texnik - iqtisodiy xususiyatlari va ularning ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobini tashkil etishga ta’siri.....	71
2.2-§.	Bevosita moddiy xarajatlar hisobini zamonaviy usullar asosida tashkil etish.....	82
2.3-§.	Bevosita mehnat xarajatlarini hisobga olish va monitoringini amalga oshirish.....	89
2.4-§.	Yordamchi va umum ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash usullari.....	100
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	105
III BOB	ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBI VA TANNARX ANIQLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	108
3.1-§.	Xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo‘yicha hisobga olish masalalari.....	108
3.2-§.	Direkt-kosting tizimida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va baholash usullari.....	123
3.3-§.	Donni qayta ishlash korxonalarida strategik boshqaruv hisobini yuritishning xususiyatlari.....	131
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	140
IV BOB	KORXONA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI TAHLILI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	142
4.1-§.	Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining boshqaruv	142

	tahlilini amalga oshirish usullari.....	
4.2-§.	Zamonaviy boshqaruv tizimida strategik tahlil xususiyatlari.....	157
4.3-§.	Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....	177
	To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar.....	200
	XULOSA	202
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	205
	ILOVALAR	

KIRISH (Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror iqtisodiy o‘rinishini, raqobatdoshligi hamda xavf-xatarlarga moslashuvchanligini ta‘minlashda samarali boshqaruvning roli beqiyosdir. Bugungi kunda boshqaruv qarorlarini strategik jihatdan to‘g‘ri va ilmiy asoslashda boshqaruv hisobi va boshqaruv hisobi bo‘yicha buxgalterlarning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Jumladan, dunyoning birinchi iqtisodiy hisoblangan AQSH Mehnat statistikasi Byurosi boshqaruv hisobi bo‘yicha buxgalterlarga bo‘lgan talab 2033-yilgacha o‘rtacha 6 foizga o‘rinishini prognoz qilmoqda.¹ Bu esa iqtisodiyot subyektlari uchun boshqaruv hisobi va ushbu sohada malakali kadrlarning g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shu boisdan, jahonda boshqaruv hisobini tashkil qilishning konseptual asoslarini ochib berish va metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida eng maqbul variantlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda boshqaruv hisobini samarali tashkil etishning nazariy asoslari, menejerlarni tezkor, ishonchli va aniq axborotlar bilan ta‘minlash masalalari takomillashtirilgan. Shunga qaramasdan, don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha, ixtisoslashtirilgan javobgarlik markazlarini samarali boshqarish va boshqaruv hisobi usullarini takomillashtirish, samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish va ularni operatsion, moliyaviy, investitsion, innovatsion faoliyatlarini byudjetlashtirish hamda boshqaruv hisobida xarajatlarni hisoblashning zamonaviy usullarini qo‘llash va takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar hanuzgacha o‘z yechimini topmagan.

Xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish; aksiyadorlik jamiyatlarini strategik boshqarish, boshqaruv xodimlarining samarali

¹<https://www.bls.gov/ooh/business-and-financial/accountants-and-auditors.htm>

faoliyatini nazorat qilishni ta'minlash o'ta dolzarb muammolardir.². Hozirgi paytda xalqaro tajribada buxgalteriya sohasi mutaxassislari ish vaqtining qariyb 90 foizi boshqaruv hisobi va tahlilini tashkil etishga sarflanmoqda³. Ayni vaqtda, an'anaviy moliyaviy hisobga faqat qolgan qismigina ketadi. Bu esa zamonaviy iqtisodiy muammolarni ijobiy hal etish orqali biznes subyektlari faoliyati uzluksizligini ta'minlash maqsadida boshqaruv hisobi va ishlab chiqarish xarajatlari tahlili metodologiyasiga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqazo etadi.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida raqobat kurashining kuchayishi korxonalar o'rtasida tijorat siri qoidalariga amal qilishga jiddiy yondashuvni talab etadi. Shu boisdan, buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil ikki darajada olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Agar tashqi foydalanuvchilar manfaatlari uchun korxonalarda moliyaviy hisob va tahlil yuritilsa, ichki foydalanuvchilar uchun esa boshqaruv hisobi va tahlili mo'ljallangan bo'lib, u korporativ boshqaruv tizimida tijorat siri bilan bog'liq hisob va tahlilni amalga oshiradi. Chunki, hozirgi shiddatli islohotlar davrida korxonalar o'zlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashi uchun ta'sirchan va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishi obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Bunday sharoitlarda buxgalteriya hisobining o'rni beqiyos darajada ortib boradi, chunki nafaqat qilingan xarajatlarni olingan daromadlar bilan qiyoslash, balki korxonalarning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatiga qo'yilgan har bir so'mdan samarali foydalanishi bo'yicha mukammal hisob olib borishni taqozo etadi.

Zamonaviy buxgalteriya hisobi korxonani boshqarish tizimida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. U xalqaro standartlar talablariga javob berishi, axborot ichki va tashqi foydalanuvchilari talablarini qondirishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashi lozim. Shu narsa ayonki,

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi: 2020-yil 24-fevraldagi PQ – 4611-son Qarori.

³ Maxsudov B.Yu. Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.:TMI, 2018. – 5 b.

yuqorida sanab o'tilgan talablarni qondirish uchun axborot to'plash, qayta ishlash va qayd etishning turli usullaridan foydalanish zarur.

Darhaqiqat, boshqaruv jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatlarini to'g'ri belgilash, istiqbol yo'nalishlarini oqilona ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqarish jarayonining samaradorligini oshirishda va uni ishonchli axborotlar bilan ta'minlashda buxgalteriya hisobi va tahlili alohida o'rin tutadi. Yangicha xo'jalik yuritish tartibi buxgalteriya hisobi va tahlili oldiga bozor iqtisodiyotiga xos talablarini qo'yadi. Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosati bozor talablariga mos bo'lishi kerak. Shuning uchun ham O'zbekistonda buxgalteriya hisobini isloh qilishga alohida e'tibor berilmoqda, uning usul va shakllari xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda.

Respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va turli xalqaro korxonalarga a'zo bo'lishi buxgalteriya hisobi va tahlilining jahon talablari asosida yuritilishini taqozo etadi. Turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar erkin raqobat asosida samarali faoliyat ko'rsatib, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi kerak. Bu esa korxonalarda mavjud ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi hamda buxgalteriya hisobi va tahlilining oldiga yangicha vazifalarini qo'yadi.

Korxonalarda buxgalteriya hisobini davr talabi asosida tashkil etish, mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash, ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yanada takomillashtirish bozor iqtisodiyotining muhim talablaridandir.

Iqtisodiy islohotlar boshlangan davrdan buyon o'tgan vaqt davomida respublikamizda iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy, shu jumladan xarajatlar hisobi va tahlili sohasida ham bir qancha o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shuningdek, milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, shu bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini va mahsulot tannarxini kamaytirish, uning tahlilini tashkil etish vazifalari belgilangan.

Globalashuv sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibi, ularni buxgalteriya hisobida yuritish va real sektorda mahsulot tannarxini aniqlashni

takomillashtirish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlilini tashkil qilishning buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablariga mos keladigan usullarini hamda tashkiliy tamoyillarini qo'llash masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, korxonalar faoliyatida xarajatlar hisobi va tahlilini tashkil etishning uslubiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha taklif va mulohazalar berilgan.

O'zbekistonda don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarning boshqaruv hisobini tashkil etish va takomillashtirish maqsadlarida xo'lik yurituvchi subyektlar operatsion faoliyat samaradorligini oshirish va xalqaro standartlar asosida joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, "...so'nggi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSH dollaridan va ularning yillik eksport hajmi 510 million AQSH dollaridan oshdi"⁴. Respublika iqtisodiyotining bunday ko'rsatkichlar tizimida rivojlantirilishi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning samarasidir. "Iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish..."⁵. Shunga ko'ra, O'zbekistonda don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida, aynan ishlab chiqarish xarajatlari boshqaruv hisobini tizimli tashkil etish, ularda samarali axborot bazasini yaratish, ma'lumotlarni to'g'ri va ishonchli qayd etish, ma'lumotlarni umumlashtirish va taqdim qilishda boshqaruv hisobi metodologiyasi rivojlantirilmoqda. Mazkur vazifalar ishlab chiqarish xarajatlari boshqaruv hisobini samarali tashkil etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, xo'jalik faoliyatini tizimli tahlilini o'tkazish, ishlab chiqarish xarajatlari boshqaruv hisobi uslubiyotini takomillashtirish muhim o'rin egallashini ko'rsatib beradi. Bularning barchasi ko'rib chiqilayotgan

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16-fevral 2024-yildagi PF-36-son Farmoni <https://lex.uz/docs/6802687>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 07.02.2017-yildagi PF-4947-son Farmoni

mavzuning nazariy va amaliy jihatdan juda dolzarb va qiziqarli ekanligini anglatadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son, «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Recpublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «G'alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to'g'risida»gi 2021-yil 15-noyabrdagi PQ-10-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Don va donni qayta ishlash mahsulotlari hisobini yuritish tizimini takomillashtirishga, ularning saqlanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2006-yil 25-maydagi 95-son, «Donni qayta ishlash korxonalari va qolipli non ishlab chiqarishni yanada qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi 2019-yil 30-sentyabrdagi 829-son, «Donni qayta ishlovchi korxonalarini qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlash va ularning eksport salohiyatini oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2018-yil 24-avgustdagi 684-son, «Don, un va non yetkazib berish tizimida bozor mexanizmlarini to'liq joriy etish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2019-yil 14-oktyabrdagi 866-son qarorlari va boshqa ushbu sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar